

TARJIMA JARAYONIDA MUKAMALLIKKA ERISHISH MEZONLARI VA YO'LLARI

Umarov Aziz Avazovich

Termiz davlat pedagogika instituti

"Rus tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi

azizumarov38239@gmail.com,

Tel.: +99894-703-38-39

Kurbanov Jamshid Safarmaxmat ugli

Otinsoy tuman 18-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur ilmiy maqolada tarjima nazariyasiga oid ba'zi masalalar va o'ziga xos muammolari tadqiq qilinib, tarjimon va asar muallifi o'rtasidagi uzviy vositalar va tarjimonlik mahorati haqida ilmiy asosdagi xulosalar keltirilgan. Tarjima sifati va mukammalligining asosiy mezonlari sifatida undagi muammolar yechimi keltirilgan. Bular qatorida tarjimonning manba bilan ishlash jarayonida etibor berishi lozim bo'lgan alohida omillar va mezonlar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Tarjima, til va adabiyot, grammatika stilistika, tarjimon, muallif, badiiy asar, tilshunoslik, metod, sinxron

KIRISH

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng oliy o'quv yurtlarining o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasi masalasi „Ta'lim to'g'risidagi qonun va shunga aloqador ravishda chet tili o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan "Chet tili o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida o'z aksini topgan.

Tarjima ilm va san'atning hamohang ko'rinishlaridan biridir. Bu ilmu san'atning o'ziga xos murakkabliklari, unga oid muammolar alohida o'rganib chiqilganida yaqqol namoyon bo'ladi. Izlanishlar dalolat berishicha, tarjima ilmiga oid manbalarda ushbu faoliyatga tegishli u yoki bu muammo muayyan darajada muhokama etilgan hollar uchraydi. Biroq mazkur faoliyatga oid deyarli barcha muhim muammolar umumlashtirilgan holda tavsiflangan hol uchramaydi.

Albatta, bu hol tarjima mohiyatini teran tushunish, unga oid tadqiqotlarni to'g'ri tashkil etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan bu ish dolzarb ahamiyatga ega va undan bahramand bo'lish, nafaqat tarjima ilmi yoki amaliyoti sohasida faoliyat yurituvchilar, balki shu faoliyat masalalariga qiziquvchilarning barchasi uchun foydadan xoli emas.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bundan ming yillar ilgari ulug' olimlarimiz Ibn Ruid, Ahmad Farg'oni, Marvaziy, Al Beruniy va boshqa shu kabi ajdodlarimiz dunyoga mashhur original asarlarni yaratish bilan birga tarjima ishlari bilan ham shug'ullanganlar.

Beruniy asl nusxani buzib tarjima qilganlarni tanqid qildi. Buni u o'zining "Hindiston" degan kitobida bir necha bor uqtirib o'tadi.

Munis, Xaydar Xorazmiy, Ogahiy, Oybek, M.Shayxzoda, G'.G'ulom, Mirtemir va boshqa ulug' shoirilar shoir bo'lish bilan birga mohir tarjimon ham bo'lganliklari hammamizga ma'lum¹.

Tarjima san'ati og'ir va shu bilan birga faxrli va xayrli ishdir. Badiiy asarni tarjima qilish uchun shoir-adib bo'lish va unda bundan tashqari ikkinchi bir talant - tarjima qilish talanti bo'lishi kerak. Tarjimon o'z ona tilini yaxshi bilgandan tashqari tarjima qilinayotgan asar tilini ham juda yaxshi bilishi, ularning nozik tomonlarini tez payqab olishi eng muhim shartlardan biridir. Tarjimonning umum bilim doirasi keng, turmush tajribasi boy, ilg'or madaniyatni egallagan shaxs bo'lishi kerak. Tarjimon qaysi xalqning tilidan tarjima qilayotgan bo'lsa, o'sha xalqning hayoti va maishiy ahvolini bilmog'i lozim.

Mazkur masalaga oid manbalarni tahlil qiladigan bo'lsak, Hans Yoaxim Shtyorixning "Das Problem des Übersetzens" (Tarjima muammosi-Darmshtadt, 1963, 1973) to'plami, T. R. Levinskaya va A. M. Fitermanning «Проблемы перевода» (Moskva, 1976) kitobi, Anton Popovichning «Проблемы художественного перевода» (Moskva, 1980) kitobi, Sider Florinning «Муки переводческие» (Tarjima mashaqqatlari-Moskva, 1983) kitobi, G'aybull Salomovning "Tarjima tashvishlari" (Toshkent, 1983) kitobi, Haydemarie Zalevskining "Probleme des Simultandolmetschens" (Sinxron tarjima muammolari-Berlin, 1987) nomli monografiyasi hamda yana boshqa bir qancha kitoblar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, maqola va tezislarni aynan shunday manbalar qatoriga kiradi².

Tarjima ishlari birinchi navbatda qiyosiy xususiyatga egadir. Bu qiyos tillar qiyosida, adabiyotlar qiyosida, madaniyatlar qiyosida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham mazkur ishni yozishda qiyosiy-tarixiy va tasviriy metodlardan keng foydalanildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tarjima jarayoni tilshunoslikda bir markaziy o'rinni egallasa ham, aytish mumkinki, u semiotikaga-belgilar funksiyalari, jarayonlari va tizimini o'rganuvchi fanga aloqador hisoblanadi. Shu bilan birga tarjimada bir tildan boshqasiga mazmun o'tkaziladi. Bu jarayon bir qancha ekstralingvistik mezonlar bilan bog'liq bo'ladi

G'. Salomov ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, "Aslida fan, badiiy adabiyot, san'at va tarjima haqidagi bahsni xalqning savodxonligi, umumiy madaniy saviyasi, o'lkada matbuot va nashriyot ishining ahvoli masalasidan boshlamoq kerak. Negaki, adabiyot, kitob, tarjima ularni o'qiy oladigan, tushunadigan va munosib baholashga qurbi yetadigan xalq uchun yaratiladi"³.

Tarjima asliyatga qay darajada mos bo'lishi, mana shunday tafovutlar oz yoki ko'pligiga bog'liq. Ma'lumki, tillar genetik, morfologik jihatdan o'zaro farqlanadi. Masalan, odatda ikki flektiv yoki ikki agglyutinativ tillararo tarjima, flektiv-agglyutinativ yoki agglyutinativ-flektiv tillararo tarjimadan aniqroq chiqishi tabiiy. Chunki, bunday tillardagi grammatik, leksik, fonologik birliklar ko'pincha bir-biriga mos keladi. Bunday afzallik, ayniqsa, she'riy tarjimalarda yaqqol namoyon bo'ladi

"Tarjimoniig barcha turlarini-og'zaki, ilmiy, badiiy-avvalo tillar tafovutidan kelib chiqadigan, keyin esa tarjima qilinayotgan matnni idrok etib, ma'lumotni boshqa tilda berish bilan bog'liq texnik, psixologik

¹ R.Allayarova. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (Ma'ruza matnlari). Urganch, 2004.

² Safarov Odiljon Mamadiyevich "Tarjima muammolarining umumlashtirilgan tavsifi" «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 Volume: 1, ISSUE: 3

³ Salomov, G'. Ma'naviy kamolot kaliti // Tarjima tashvishlari.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.9-b.

va boshqa muammolar birlashtiradi"⁴,-deya uqdiradi I. Leviy. Tarjima jarayonida ikki til, ikki madaniyatga xos tafakkur tarzi o'zaro to'qnashishi tufayli, asliyat matnini tarjimada to'g'ri berish ko'pincha oson kechmaydi. Shuning uchun ham ayrim hollarda tarjimaga tegishli sharh va izohlar ilova qilinishi ilmiy asosga ega.

Tarjimashunoslikda tarjima original ijodga qiyoslangan hollar ko'p uchraydi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki tarjimaga tegishli muammolarning aksariyati original ijodda ham uchraydi. Masalan, matnga sharh va izohlar ilova qilinishi hollari original ijodda ham ko'p uchraydi. Shuningdek, original ijodga taalluqli tahrir, tahlil, tanqid muammolari tarjimaga ham tegishlidir

Ta'kidlash lozimki, badiiy, ilmiy va hokazo asarlar tahrirchisi bilan shu sohalarga oid tarjima adabiyotlari tahrirchisi o'rtasida katta farq bor. Chunki muayyan tarjima adabiyoti tahrirchisi tegishli sohanigina emas, balki tegishli tillarni ham bilishi kerak. Qolaversa, u tarjima ilmidan ham atroflicha xabardor bo'lishi shart. Aks holda u tarjima adabiyoti nufuzini ancha tushirib yuborishi mumkin. Natijada, tarjimonga ham, muallifga ham muayyan darajada ma'naviy zarar yetkaziladi. Bunday zarar minglab, millionlab o'quvchilarga ham yetib borishi muqarrar. Ming afsuski, oxir-oqibatda asosiy aybdor mashaqqatli va halol mehnat sohibi tarjimon bo'lib qolishi mumkin

Har qanday tarjimaning qadr-qimmati, uni tahlil qilish, ya'ni o'rganish, tekshirish orqali namoyon bo'ladi. "Tegishli tarjima nusxasi asliyatga mosligi haqida haqiqiy xulosa chiqarish uchun, dastlab aynan qaysi matn tarjimonga asliyat sifatida xizmat qilgani aniqlab olinishi kerak"⁵. Tarjima tahliliga xuddi shu nuqtai nazardan yondashilishi lozim. Chunki muayyan tarjima asliyat tili orqali emas, biror vositachi til orqali amalga oshirilgan bo'lishi ham mumkin. Agar vositachi tilda tegishli matnning bir nechta tarjimalari bo'lsa, tanlangan matn asliyatga qanchalik yaqinligi haqida xulosa chiqarilishi kerak. Umuman olganda tarjima asliyatdan bevosita amalga oshirilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Masalaga tanqidiy yondashgan holda tarjimonning badiiy uslubi va o'ziga xos tarjima san'atiga nisbatan maxsus talablarning qo'yilishi tabiiy holatdir.

G'. Salomov badiiy tarjima amaliyotida hozirgacha jiddiy o'rganilmagan muammolardan ba'zilar sifatida quyidagilarni qayd etadi: "6. Kitobxonga tushunarli til bilan tarjima qilish, tarjimada muallif va asarning til, uslub xususiyatlarini o'zgartirish huquqini beradimi?

2. Aksincha, muallifning til va uslub xususiyatlarini aks ettirish, asarni hijjalab tarjima qilish lozimligini ko'rsatadimi?

3. Nima sababdan badiiy tarjima qilish prinsiplari qat'iy bo'lsa ham, bir asarni bir necha kishi ag'darsa, bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan bir necha xil tarjima hosil bo'ladi. Tarjimada bu taxlit xilma-xillikka yo'l qo'yish mumkinmi?"⁷.

Yuqoridagi savollar aslida tarjimonning malaka va mahorati o'lchov mezonlari va tarjima sifatini mukammal darajaga ko'taruvchi kategoriyalar sifatida gavdalanadi

Tarjimaning asl mohiyatini anglash orqaligina, bu muammolarning barchasini hal qilish choralari topish mumkin. Tarjimaning asl mohiyatini anglash uchun, mazkur faoliyat yana qanday muammolarga ega ekanligi aniqlab olinishi maqsadga muvofiqdir.

⁴ Левый, И. Общая и специальная теория перевода //Искусство перевода.-Москва: Прогресс, 1974.-С. 32.

⁵ Левый, И. Анализ перевода // Искусство перевода.-М.: Прогресс, 1974.-С. 218.

⁶ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. T., Fan. 2005. 55-b

⁷ Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T., 1978 45-b

“Bugungi kunda tarjima nazariyasida muhokama etilayotgan tarjima muammolari ichida-tarjima invarianti, tarjima bo‘lish muammosi, tarjima birligi, tarjimaning semantik va uslubiy muammolari, tarjima amaliyoti va h.-biz tarjimada tushunish muammosini topa olmaymiz”⁸, -deb yozadi A. Kryukov. Shuningdek, u mazkur muammoni o‘rganishga falsafiy hermenevtika (matnni tushunish san‘ati haqidagi ta‘limot) asosida yondashishni taklif qiladi.

Tarjimonning bilimi va mahorati qay darajada ekanligi esa, u tarjima ilmidan qanchalik xabardor ekanligiga ham bog‘liq. Aks holda u o‘z faoliyatiga o‘zi bilgancha yondashishi mumkin. Shu nuqtai nazardan tarjima ilmining ayni paytdagi ahvoli ham tarjimaning dolzarb muammolaridan biridir. Holbuki, tarjima ilmida amalga oshirilgan ishlar yetarli darajada emasligini ko‘plab tarjimashunoslarning o‘zlari ham e‘tirof etishgan. A. Fyodorov esa bu haqda shunday yozadi: “Ha, ayni paytdagi ahvol tarjimaning umumiy nazariyasida ham, badiiy tarjima nazariyasida ham oddiy emas. Savol paydo bo‘ladi: bu turfaliklar bir-biriga qanchalik to‘g‘ri keladi yoki, aksincha, to‘g‘ri kelmaydi-ziddiyatli, ...? Bu savolga javobni, albatta, kelajak beradi, hatto juda yaqindagi bo‘lmisligi ham mumkin” [12].

NATIJALAR

Yuqoridagi tarjima muammolarini tahlil qilish natijasida uning mukammaligining asosiy mezonlarini nomlashga harakat qildik.

Tarjima jarayonini biz yuqorida biror tildagi matnni ikkinchi bir tildagi matnga transformatsiya qilish, o‘zgartirish deb ta‘riflab o‘tdik. Demak, tarjima jarayonida albatta ikkita matn (A.I.Smirnitskiy bo‘yicha “nutq asarlari”) mavjud bo‘ladi. Bulardan bittasi boshlang‘ich, dastlabki matn hisoblanadi va ikkinchi matnga bog‘liq bo‘lmagan holda yaratiladi. Ikkinchi matn esa birinchi matn asosida ma‘lum uslubiy-lisoniy operatsiyalar, ishlar bajarish yo‘li bilan vujudga keladi. Birinchi matn asl matn yoki original nusxa deb aytilsa, ikkinchi matn tarjima matni yoki tarjima deb ataladi.

Badiiy tarjimada baholash mezonini talqin(interpretatsiya)dir. Uni qayta yaratish jarayoni esa uch bosqichda amalga oshadi⁹.

1. Asl nusxani tarjimon qanday qabul qilishi (tushunishi).
2. Asarning g‘oyasi, muallifning maqsad-muddaosi va uning o‘ziga xos uslubini qanday talqin qilishi.
3. So‘z san‘ati namunasini o‘z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita, tadbir va tadorik topa olishi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda tarjima sur‘ati xoh u yozma bo‘lsin xoh u og‘zaki bo‘lsin, uning sifati nuqtai nazaridan ijobiy mazmun kasb etishini talab qiladi. Tarjima sur‘atini oshirish o‘ziga hos amaliy muammolarga ega. Bunga lug‘at zahirasiining kambag‘alligi yoki grammatik bilimlarning sustligi asosiy ko‘rsatgich emas. Balki tarjimondan bundan ham ko‘proq narsani bilish talab qilinadi. Zero, tarjima qila olish bu butun bir fandir. Tarjima tilida fikrlay olamizmi, demak biz shundagina tarjimaning o‘ziga hos nozik jihatlarini anglay olamiz. Tarjima mukammaligining asosiy mezonlari uning metodik va badiiy-stilistik strukturasi va ushbu jarayonlarni parallel tarzda ketma-ketlikda amalga oshirishdan iboratdir.

⁸ Левый, И. Анализ перевода // Искусство перевода.-Москва: Прогресс, 1974.-С. 217-218. 12. Фёдоров, А. Искусство перевода и жизнь литературы. Ленинград: Советский писатель, 1983.-С. 172.

⁹ Z.Jumaniyozov “Tarjimaning nazariy va amaliy asoslari” o‘quv qo‘llanma T 2018 58-b

Sinxron tarjima, tayorgarliksiz va tayorgarlik bilan qilinadigan tarjima turidan va holatidan tashqari matning asliy holatini saqlash kabi masuliyatli vazifani tarjimon zimmasiga yuklaydi

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. R.Allayarova. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (Ma'ruza matnlari). Urganch, 2004.
2. Salomov, G'. Ma'naviy kamolot kaliti // Tarjima tashvishlari.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.-B. 9.
3. Левый, И. Общая и специальная теория перевода //Искусство перевода.-Москва: Прогресс, 1974.-С. 32.
4. Левый, И. Анализ перевода // Искусство перевода.-М.: Прогресс, 1974.-С. 218.
5. Левый, И. Литературоведческие методы // Искусство перевода.-Москва: Прогресс, 1974.-С. 44.
6. Фёдоров, А. Искусство перевода и жизнь литературы.-Ленинград: Советский писатель, 1983.-С. 61-62. 7. Там же, 63 с.
7. Саломов, Ғ. Бадиий таржима ҳақида ўй ва мулоҳазалар // Таржима санъати (мақолалар тўплами, 3-китоб).-Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.-Б. 53.
8. Левый, И. Анализ перевода // Искусство перевода.-Москва: Прогресс, 1974.-С. 217-218. 12. Фёдоров, А. Искусство перевода и жизнь литературы.-Ленинград: Советский писатель, 1983.-С. 172.
9. www.google.uz, www.pedagog.uz, www.daad.uz, www.Wikipedia.org, www.Goethe.taschkent.uz, www.Test.daf.de, www.Hueber.de, www.Eu.europe.com.